XALQ DEPUTATLARI G‘ALLAOROL TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 5-iyul VI-67-84-3-45-K/24 G‘allaorol tumani

G‘allaorol tumanidagi shaharcha, qishloq va mahallalarning chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 299-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida G‘allaorol tumanidagi shaharcha, qishloq va mahallalar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini muhokama qilib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq xalq deputatlari G‘allaorol tumani Kengashi

q a r o r q i l a d i:

1. G‘allaorol tumanidagi shaharcha, qishloq va mahallalar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan Davlat kadastrlari palatasi G‘allaorol tumani filialining 2024 yil 29 martdagi 01/02-174-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. G‘allaorol tumanidagi shaharcha, qishloq va mahallalar chegara chiziqlarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risidagi ma’lumot ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. G‘allaorol tumanidagi shaharcha, qishloq va mahallalar chegara chiziqlarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashiga kiritilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari T.Qo‘chqorov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi OQBOYEV JALOLITDIN JAMOLOVICH

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani
Kengashining
2024-yil 5-iyuldagi
VI-67-84-3-45-K/24 -son qaroriga
1-ilova

G‘allaorol tumanidagi shaharcha, qishloq va mahallalarning chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risida
MA’LUMOT

№	Shaharcha, qishloq va mahallalar nomi	Chegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (gektar)
1.	Alamli MFY	4747	131,9
2.	Do‘stlik MFY	5926	108,4
3.	Mirzabuloq QFY	29344	2610,5
4.	Nurafshon MFY	8176	304,1
5.	Moltob QFY	33628	3703,6
6.	Mulkush QFY	22120	1601,1
7.	Xonimqo‘rg‘on QFY	40620	5093,5
8.	G‘o‘bdin QFY	119726	25203,8
9.	Buloqboshi QFY	30232	1798,9
10.	Uzunbuloq MFY	50832	8925,6
11.	Guliston QFY	30718	2739,6
12.	Qashqabuloq MFY	20238	1245,9
13.	Oqtom MFY	40650	3541,2
14.	G‘.G‘ulom MFY	10201	223,4
15.	Sarbozor MFY	11394	540,9
16.	Tozaurug‘ QFY	33471	3652,9
17.	Gulchambar QFY	56080	11300,2
18.	Jiydali QFY	62277	10110,1
19.	Korizquduq QFY	67441	9673,6
20.	Lalmikor MFY	10976	348,2
21.	O‘zbekiston MFY	12271	606,6
22.	Marjonbuloq ShFY	7750	215,4
23.	Yashnaobod MFY	7573	181,7
24.	Oqtosh MFY	55765	12772,6
25.	Qipchoqsuv QFY	57440	11426,5
26.	Naxroch MFY	35685	6890,6
27.	Samarqand MFY	5318	109,3
28.	Baxt MFY	6623	106,5
29.	Ko‘kbuloq QFY	114034	37879,2
30.	Ko‘kgumbaz MFY	44654	6081,6
31.	Madaniyat QFY	51649	6012,1
32.	Qangli MFY	8240	177,8

33.	Olimlar MFY	5556	130,8
34.	Qo‘ytosh ShFY	58660	9866,3
35.	Savruk MFY	71718	11230,3